

Date: 1st June-2026

**SEMINAR MASHG'ULOTLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA MA'NAVIY
KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

Avazova Xushro'ybibi Kamoltdin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda seminar mashg'ulotlari orqali o'quvchilarda ma'naviy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik texnologiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda seminar darslarining interfaol xususiyatlari, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va qadriyatli munosabatlarini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, muhokama, guruhli ishlash va muammoli vaziyatlar asosida ta'lim berish metodlarining samaradorligi ko'rib chiqiladi. Natijalar seminar mashg'ulotlari o'quvchilarning ma'naviy yetukligi va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: seminar mashg'ulotlari, seminar mashg'ulotlarini tashkil etish, seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik, maxsus seminar, hamkorlik, muhokama qilish, mustahkamlash, adabiyotni o'rganish, nazariy bilimlar, amaliy faoliyat, kouching, tahliliy xulosalar.

Аннотация: В данной научной работе анализируются педагогические технологии формирования духовно-нравственных компетенций учащихся посредством семинарских занятий. Рассматриваются интерактивные особенности семинаров, а также их роль в развитии самостоятельного мышления и ценностного отношения учащихся. Особое внимание уделяется эффективности методов обсуждения, групповой работы и проблемного обучения. Результаты исследования показывают, что семинарские занятия являются важным фактором повышения духовной зрелости и социальной активности учащихся.

Ключевые слова: семинарские занятия, организация семинарских занятий, подготовка к семинарским занятиям, специальный семинар, сотрудничество, обсуждение, закрепление, изучение литературы, теоретические знания, практическая деятельность, коучинг, аналитические выводы.

Abstract: This scientific work analyzes pedagogical technologies for developing students' moral competencies through seminar sessions. The study highlights the interactive nature of seminars and their role in fostering independent thinking and value-based attitudes among students. Special attention is given to the effectiveness of discussion-based learning, group work, and problem-based teaching methods. The results show that seminar sessions are an important factor in enhancing students' moral maturity and social engagement.

Keywords: sessions, organization of seminar sessions, preparation for seminar sessions, special seminar, collaboration, discussion, consolidation, literature review, theoretical knowledge, practical activity, coaching, analytical conclusions.



Date: 1st June-2026



Bugungi kunda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mamlakatimiz ta'lim tizimini dunyo ta'lim tizimi bilan muvofiq holga keltirishda asosiy vosita rolini bajarmoqda. Chunki, ta'lim muassasalari har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish uchun rivojlanish yo'ldan borishni talab qilmoqda. Buning uchun eski yondashuvlarni takomillashtirish emas, ta'lim tizimini innovatsion strategiya ruhida rivojlantirish zarur. Ya'ni, yangi ta'lim amaliyotini yaratish bilan bog'liq jarayonlarni amalga oshirish, ta'lim innovatsiyalarini, ta'lim texnologiyalarini yaratish va o'zlashtirish uchun pedagog kadrlarni innovatsion jarayonlarga tayyorlash lozim. Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston dunyo bozoriga chiqdi, xorijiy mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar bilan bevosita hamkorlik ishlari rivojlandi. Butun jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallashga intilayotgan, o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun ta'lim sohasida erishgan va erishayotgan yutuqlarimizni xorijiy hamkasblar bilan o'rtoqlashishi hamda ilg'or innovatsion texnologiyalar va yondashuvlarni amaliyotga joriy etishga bo'lgan qiziqish kuchaydi. Ta'lim jarayonlarida o'qitishning yana bir shakli - bu seminar mashg'ulotidir. Seminar mashg'ulotlari quyidagi vazifalarni yechishga qaratilgan bo'ladi:

1. ma'ruzada bayon qilingan nazariy qoidalarni mustahkamlash;
2. fan bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
3. talabalarning ilmiy-tadqiqot, bilish qobiliyatlarini o'stirish;
4. nazariy o'qitish jarayonida egallagan bilimlarining amaliyotda tan olinishi.

Seminar mashg'ulotlarining uch turi farqlanadi: seminaroldi mashg'uloti, seminar va maxsus seminar. Seminar oldi mashg'ulotlari, asosan, talabalarni mustaqil ishning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. Unda adabiyotlar, ma'lumotnoma-adabiyotlar va boshqa manbalar bilan ishlash usullari o'rgatiladi, talabalarni boshlang'ich shaklda ilmiy-tadqiqot ishlariga o'tishga hozirlaydi. Seminar mashg'ulotlarida seminaroldi mashg'ulotlariga nisbatan o'ta muhim vazifalar hal qilinadi. Masalan, ayrim seminarlar tematik bog'lan-gan muayyan muntazam kursni chuqur o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Boshqa-lari esa biror mavzuni yoki kursning alohida va nihoyatda muhim va umumiy bo'lgan mavzularini metodologik jihatdan ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'ladi. Maxsus seminarlar ma'ruza mavzulariga aloqador bo'lmaydi va biror fanning dasturi mazmuniga kirmaydi. Odatda fanning xususiy masalalarini chuqur o'rganish maqsadida ko'llaniladi. Seminar mashg'ulotida o'qituvchi ham tashkilotchi, ham maslahatchi, ham notiq, ham tanqidchi, ham tarbiyachi vazifasini bajaradi. O'qituvchining seminar mashg'ulotiga tayorgarlik ko'rishi va o'tkazishi bo'yicha maslahatlar:

1. mashg'ulotning maqsad va vazifasini aniqlash;
2. seminarning mazmunini teran o'rganish;
3. talabani kerakli ma'lumotlarni topishi uchun adabiyotlarni to'g'ri tanlash;
4. savollarni to'g'ri shakllantirish;
5. talabalarini seminar savollari va adabiyotlari bilan 10-14 kun oldin tanishtirish;
6. talabalarni og'zaki javob berish bilan birga ko'rsatmali materiallardan ham foydalana olishga yo'naltirish;

Date: 1st June-2026

7. guruhning seminar mashg'ulotiga to'liq tayyor bo'lishini ta'minlash;
8. mashg'ulotda hamkorlik va hamjihatlik muhitini o'rnatish;
9. talabalarni mustaqil fikr yuritishga, har bir savol bo'yicha o'zining xulosasi bo'lishiga o'rgatish;
10. xar bir talabaga xar xil ish turlarini ishlab chiqish. Masalan, taqriz, chiqishlarni muhokama qilish, krossvord yechish va h.
11. har bir savolni muhokama qilishga ajratiladigan vaqtni belgilash va uni talabalarga oldindan eslatib qo'yish;
12. mashg'ulot yakunida materiallarni tizimlashtirish, tahlil qilish;
13. seminar mashg'ulotiga qatnashgan talabalarni baholash;
14. mashg'ulot yakunidan so'ng uni o'zi tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash.

Seminar mashg'ulotlarining vazifasi - darslarda bayon qilingan nazariy fikrlarni konkretlashtirish, chuqurlashtirishdan, o'quvchilar bilimini tekshirish va mustahkamlashdan, adabiyotni o'rganish ko'nikmasini hosil qilish, uni konspekt qilish, suhbatlar, dokladlar, ota-onalar uchun konsultatsiyalarning plan va konspektlarini tuzishdan, kursning konkret temasini og'zaki bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishdan iboratdir. Seminar mashg'ulotlari uchun kursning eng muhim va murakkab masalalari shuningdek, adabiyotlarda yetarli darajada to'liq yoritilgan va o'quvchilarning o'zlari mustaqil ravishda o'rgana olishlari mumkin bo'lgan masalalar tanlab olinadi. Seminar har bir temasi bo'yicha o'quvchilarga adabiyotlar ro'yxatini berish, topshiriqning xarakterini belgilash, uni bajarish plani va hisobot formasini ko'rsatish kerak. Adabiyotlarni o'rganayotganda o'quvchilar konspekt yoki ota-onalar uchun konsultatsiyalarning tekstlarini tuzadilar. Seminar mashg'ulotlarini quyidagicha tashkil etish mumkin: avvalo o'qituvchi seminarining vazifasi va uni o'tkazish tartibini belgilaydi. So'ngra nutq so'zlash uchun o'quvchilarga so'z beradi. Shundan keyin ishtirok etuvchilar nutq so'zlaganlarga savollar beradi, ular javob qaytarishadi. Seminar mashg'uloti o'quvchilar tomonidan u yoki bu mavzu bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash hamda uni sinf o'quvchilari bilan muhokama qilish yo'li bilan olib boriladi. Seminarlarga 2-3 hafta tayyorgarlik ko'riladi. O'quvchilar adabiyotlarni o'rganadilar, material yig'adilar, turli kuzatishlar o'tkazadilar, o'z axborotlari yuzasidan tezislar tuzadilar. Seminar - bu o'qituvchini ta'lim oluvchilar bilan faol muloqotga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitni ta'minlovchi ta'limni tashkil etish shaklidir.

Seminar quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi:

- 1) nazariy materialni tartibga solish;
- 2) bilimlarni mustahkamlash;
- 3) ko'nikma va malakalarni hosil qilish;
- 3) bilimlarni nazorat qilish.

Seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish Seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda quyidagi savollarga javob topiladi:



Date: 1st June-2026

1. Nima uchun?

- Seminarni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad.

2. Qanday tarzda?

- Seminarni olib borish texnologiyasini ishlab chiqish.

3. Nimani muhokama qilish?

- Seminarni olib borish vaqtida muhokama qilinadigan materiallar mazmuni.

4. Qanday omillarni hisobga olish zarur?

- Seminarni tashkil etish jarayonida ma’lum omillarni hisobga olish.

Xulosa qilsak, inson tomonidan taqdimot shaklida yetkazilgan ma’lumotning o‘rtacha 50% 1 soat ichida, 24 soatdan keyin uning 70%i, bir haftadan keyin esa olingan ma’lumotning 90% i unitilar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun (yangi tahrir). – Toshkent, 2020 – 12-son 78-99 bet
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024-y 67-123 betlar.
3. Podlasy I.P. Pedagogika. – Moskva: Yurayt, 2020.-y 56-59 bet
4. Slastenin V.A., Isaev I.F. Pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2023.

